



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Agrokimyo, tuproqshunoslik
va o'simliklarni himoya qilish»
kafedrası*

*5410300 – O'simliklar himoyasi
va karantini ta'lim yo'nalishi
bakalavriat bitiruvchisi*

RAHIMOVA MUSHARRAFOY MUZAFFAROVNANING

**Mavzu: Karamning asosiy zararkunandalari va ularga qarshi
kurash choralari**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar, assistent _____ A. M. Xudayqulov

*Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish kafedrası yig'ilishi-
da muhokama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi. Kafedra mudiri,
professor _____ F.H .Hoshimov
«___» _____ 2015 y*

*Agronomiya fakulteti
dekani, dosent*

_____ D.S.Normuradov

*«___» _____ 2015yil
Bayonnoma № _____*

SAMARQAND-2015

Samarqand qishloq xo'jalik instituti
«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish»
kafedrasining ____ - sonli majlis

B A Y O N I D A N K O' Ch I R M A

«__»_may_ 2015 yil

Samarqand shahri

Qatnashdilar: F.Hoshimov – kafedra mudiri professor, P.Uzoqov – kafedra professori, M.Hayitov – kafedra dosenti, B.Abdullayev - kafedra dosenti, B. Fayzullayev – kafedra dosenti, T.Ortiqov - kafedra dosenti, E. Umurzoqov - q.x.f.doktori, S.Ahmedov - kafedra katta o'qituvchisi, O.Nazarov – kafedra katta o'qituvchisi, M.Mashrabov - kafedra assistenti, Sh.Hazratqulov - kafedra assistenti, A. Xudoyqulov- kafedra assistenti, O. Po'latov - kafedra assistenti, X. Xursanov kafedra assistenti, Sh. Xolmurodov kafedra assistenti, L.Sonamyan - kafedra laboranti, M. G'ulomova - kafedra laboranti, hamda kunduzgi bo'limning kafedrada malakaviy bitiruv ishi bajargan 53 nafar talabasi.

Kun tartibi:

Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Rahimova Musharrafoy Muzaffarovning **«Karamning asosiy zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi.

So'zga chiqdi:

Kafedra mudiri, professor F. Hoshimov O'zbekiston Respublikasi OO'MTV ning 31.12.1998 yil 362 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlari bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishi» to'g'risidagi nizomiga asosan har bir malakaviy bitiruv ishi kafedrada muhokama qilingandan keyin DAK himoyasiga tavsiya etilishi kerakligini aytib o'tdi. Kafedramizda kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Rahimova Musharrafoy Muzaffarovning **«Karamning asosiy zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini eshitamiz.

Shundan so'ng Rahimova Musharrafoy Muzaffarovna o'z malakaviy bitiruv ishi mavzusini dolzarbligini, ahamiyatini, ilmiy yangiligini, olingan natijalarni va qilingan xulosalarni ma'ruza qildi.

Ma'ruzachiga mavzu yuzasidan 4 ta savol berildi, u berilgan savollarga javob berdi.

Muhokamada F.Hoshimov, P. Uzoqov, T. Ortiqov, N. Nishonov, S. Ahmedov va B. Abdullayevlar ishtirok etdilar.

QAROR QILINDI:

1. Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Rahimova Musharrafoy Muzaffarovning **«Karamning asosiy zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi barcha ko'rsatkichlari bo'yicha DAK talablariga javob berishi inobatga olinib, u DAK da himoya qilish uchun tavsiya etilsin.

Majlis raisi, professor:
Kotiba:

F.H. Hoshimov
M.G'ulomova

MUNDARIJA

№	Mavzular nomi	Bet
	Kirish.....	4
I- bob	Karam zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari <i>adabiyotlar sharhi</i>.....	10
II – bob	Tadqiqot o'tkazishda qo'llaniladigan uslublar.....	23
2.1	Tadqiqot o'tkazish maqsadi va vazifalarini tahlili.....	24
III	TADQIQOT NATIJALARI	25
3.1	Karam va boshqa butgulli sabzavotlarga zarar yetkazadigan – baridlar tur tarkibini morfologiyasi, bioekologiyasi va zarari.....	25
3.2	Bryukva baridi lichinkalarini yoshiga qarab morfologik belgilarini o'zgarishi.....	33
3.3	Bryukva baridiga tashqi muhit faktorlarini ta'siri.....	35
3.4	Bryukva baridi lichinkalarining rivojlanishiga harorat va namlikning ta'siri.....	36
3.5	Bryukva baridi g'umbagi rivojlanishiga harorat va namlikning ta'siri.....	37
IV- bob	KARAM UZUNBURUNLARI – BARIDLARGA QARSHI KURASH ChORALARI.....	39
4.1.	Kimyoviy kurash choralari.....	39
V - bob	Hayot faoliyati xavfsizligi.....	44
	XULOSALAR.....	48
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	49
	Ilovalar Internet ma'lumotlari	55

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 17 yanvardagi majlisidagi **“2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”** nomli ma'ruzasida qayd etilgan qoida, xulosa va ko'rsatmalar, belgilab berilgan 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim yo'nalishlari va **6 ta** ustuvor vazifalari vazirlik va tizimdagi barcha korxona, tashkilot hamda muassasalar faoliyatida dasturilamal sifatida qabul qilinib, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohaning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, zamonaviy resurs tejamkor agrotexnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirishni rag'batlantirish hamda shartnomaviy-iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida hisobot davrida quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi.

Hisobot yilida respublika bo'yicha **jami 73 ming 588 ta** fermer xo'jaligi faoliyat olib borayotgani holda, ularga 5 mln 939 ming 118 gektar yer maydonlari ijaraga berilgan bo'lib, bunda bir fermer xo'jaligi ixtiyoridagi **o'rtacha yer maydoni 80,7 gektarni** tashkil etmoqda. Shundan:

paxtachilik va g'allachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari 39 ming 691 ta bo'lib, ularga 4 mln 11 ming 68 gektar yoki bir fermerga o'rtacha 101,1 gektar yer maydoni ijaraga berilgan;

sabzavot va polizchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari soni 5 ming 394 tani tashkil etib, ularga ijaraga berilgan yer maydoni jami 138 ming 54 gektarga teng yoki bir fermerga o'rtacha 25,6 gektar yer to'g'ri keladi;

bog'dorchilik va uzumchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari 16 ming 683 ta bo'lib, ularga 255 ming 538 gektar yer maydoni ijaraga berilgan, bunda bir fermer xo'jaligidagi o'rtacha yer maydoni 15,3 gektarni tashkil etadi;

chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari soni 7 ming 257 ta bo'lib, ularga 1 mln 329 ming 193,6 gektar yoki bir fermer xo'jaligiga o'rtacha 183,2 gektar yer maydoni ijaraga berilgan;

boshqa yo'nalishdagi fermer xo'jaliklari esa 4 ming 563 ta bo'lib, ularga 205 ming 263,5 gektar yer maydoni ijaraga berilgan bo'lib, bir fermer xo'jaligiga birlashtirilgan yer maydoni o'rtacha 45,0 gektardan iborat bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-4478-sonli** Farmonida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda fermer xo'jaliklarini moddiy manfaatdorligi ta'minlash va rag'batlantirish hamda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar asosida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Hisobot yilida O'zbekiston Fermerlari kengashlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan hududiy Dasturlarga asosan 19 mingdan ortiq fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga aylantirish belgilab olinib, amalda 19 ming 612 ta (yillik rejaga nisbatan 102,4%) fermer xo'jaliklarida qo'shimcha ishlab chiqarish sohalarini tashkil etish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi.

Jumladan, 484 ta (101,3%) fermer xo'jaligida 3657 gektar (101%) maydonda intensiv bog'lar, 767 ta (102%) fermer xo'jaligida 2938 gektar maydonda mahalliy bog'lar, 1363 ta (102%) fermer xo'jaligida 4958 gektar maydonda yangi tokzorlar, 112 ta (119%) fermer xo'jaligida 59 gektar (101%) maydonda issiqxonalar, 86 ta (101%) fermer xo'jaligida 148 gektar maydonda ko'chat yetishtirish va 8659 ta (105%) fermer xo'jaligida 21857 gektar (105%) maydonda sabavotchilik tashkil etildi.

Shuningdek, hisobot davrida 1330 ta (101%) fermer xo'jaligida (33616 bosh, 96%) qoramolchilik yo'nalishidagi, 834 ta (104%) fermer xo'jaligida (2,6 mln bosh, 105%) parrandachilik yo'nalishidagi, 609 ta (100%) fermer

xo'jaligida baliqchilik yo'nalishidagi va 762 ta (101%) fermer xo'jaligida asalarichilik (21,4 mingta asalari uyalari, 102%) yo'nalishidagi, 29 ta (97%) fermer xo'jaligida go'shtni qayta ishlash, 79 ta fermer xo'jaligida sutni qayta ishlash va 58 ta fermer xo'jaligida meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, 5 ta fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, 17 ta fermer xo'jaligida muzlatgichli omborxonalar hamda 4418 ta fermer xo'jaligida servis xizmati ko'rsatishni tashkil etish yo'nalishidagi loyihalar amalga oshirildi.

Ushbu loyihalarni amalga oshirish uchun jami 549,8 mlrd. so'm shundan, 144,97 mlrd so'm bank kreditlari va 404,84 mlrd so'm (103,2%) fermer xo'jaliklarining o'z mablag'lari yo'naltirildi. Amalga oshirilgan loyihalar natijasida qishloq joylarda 75,9 mingta (101,2%) yangi ish o'rinlari yaratildi.

Umuman olganda, bugungi kunda fermer xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish hamda ular tomonidan shartnomaviy majburiyatlarini bajarishga bo'lgan mas'uliyati va javobgarligini oshirish bilan bog'liq tadbirlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 20 noyabrdagi *"2014 yilda meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, poliz va uzum ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishning istiqbol ko'rsatkichlari to'g'risida"*gi 311- sonli qarorida 8880 ming tonna sabzavot, 1594 ming tonna poliz, 2398 ming tonna kartoshka, 2472 ming tonna meva, 1362,5 ming tonna uzum yetishtirish belgilangan.

Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash, aholini arzon, sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlab borish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlarining ichki imkoniyatlardan kelib chiqib, 2014 yilda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, qayta ishlash, eksport qilish, ichki bozorni to'ldirish bo'yicha hududiy chora-tadbirlar Dasturlari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, Respublikadagi meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 30 ta tuman hokimliklari o'zlarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, meva-sabzavot, uzum va kartoshka mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, issiqxona va muzlatkichli-omborxonalar, qayta ishlash korxonalarini qurish, yangi intensiv mevali bog'lar barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi "Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda 2014 yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularni qayta ishlashni salmog'ini, eksport hajmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi EDO-03-13-10-sonli (№42) yig'ilish bayoni bilan tasdiqlandi.

Hisobot yilida barcha toifa xo'jaliklarining asosiy, oraliq va takroriy maydonlariga jami **2466 tonna** sabzavot urug'i, **506,6 tonna** poliz urug'i va **392,2 ming tonna** urug'lik kartoshka ekilgan.

Shuningdek, yangi intensiv bog'-tokzorlar tashkil etish hamda yaroqsizlarni rekonstruksiya qilish uchun jami **7 mln. 793 ming** dona mevali ko'chatlar, **10 mln. 436 ming** dona tok ko'chatlari o'tkazildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014 yil yakuni bilan jami **17 mln. 367 ming** tonna, shu jumladan, 9 mln. 286,7 ming tonna (2013 yilga nisbatan **109,1 foiz**) sabzavot, 1 mln. 696,1 ming tonna (**108,9 foiz**) poliz, 2 mln. 452,4 ming tonna (**109 foiz**) kartoshka, 2 mln. 490,6 ming tonna (**110 foiz**) meva va 1 mln. 441,2 ming tonna (**109 foiz**) uzum yetishtirildi.

Shu jumladan:

- **2296,5 ming** tonna (yillik rejaga nisbatan **101,8%**) **qayta ishlash** korxonalariga topshirildi.

- **1701 ming** tonna (**103%**) Toshkent shahri va boshqa yarmarkalarida mahsulotlar sotildi.

- **605,8 ming** tonna (**121,2%**) meva-sabzavot mahsulotlari **eksport** qilindi.

- **1344 ming** tonna (**116%**) byudjet tashkilotlariga topshirildi.

- **11,4 mln.** tonna mahsulotlar ichki bozorlarda sotildi va ichki is'temol uchun ishlatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish va bozorlardagi narx-navolarni barqarorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan chora-tadbir dasturlarini bajarilishi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Xalq xo'jaligida sabzavot mahsulotlarini o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda respublikamizda butguldosh sabzavotlardan karam, turp, sholg'om, rediska, salatlar yetishtirilmoqda. O'z o'rnida bu o'simliklarga ham bir qator zararkunanda va kasalliklar zarar yetkazib, hosildorligi, tovarlik sifatini pasaytiradi.

Karam o'simligi yaxshi diyetik oziq bo'lib, o'zida mineral tuzlar, vitaminlar va asosan askorbin kislotalarni jamlaydi.

Oqbosh karam O'zbekistonda XX asr boshidan ekib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib oqbosh karam respublikamizda ekiladigan jamiki sabzavotlarni 20 % ini tashkil etadi. Seleksioner urug'shunoslar respublikamiz sharoitiga mansub yuqori hosildor navlar yaratmoqdalar. Ular quyidagilardan: Dushanbe kechkisi, O'zbek-sudyasi, o'rta kechpishar, Likirishka kechpishar, O'zbekistanskaya-133, Toshkent-10 va boshqalar.

Butguldosh o'simliklarni butun vegetasiya davomida bir qancha zararkunandalar hosildorligini, sifatini pasaytiradi. Respublikamizda, asosan erta bahorgi navlar yuqori zararlanadi. Butguldosh o'simliklarga zarar yetkazuvchi zararkunandalarni 300 dan ortiq turi aniqlangan bu zararkunandalarga qarshi kurash choralari olib borilmasa, juda katta hosil yo'qotilishi mumkin. Bu zararkunandalar ildizni, o'suv nuqtalarini, barglarini, poyalarini hamda urug'larini zararlaydi. Respublikamizdagi karam va boshqa butguldoshlarga karam biti, karam pashshasi, karam oq kapalagi va boshqa ko'plab zararkunandalar zarar yetkazadi. Keltirilgan zararli hasharotlar karamni ildizini, poyasini, bargini nobud qiladilar.

Lekin yaxshi hosil olish uchun o'simlik yetilgandan keyin urug' sifati katta ahamiyatga ega. Qanchalik urug' sifatli bo'lsa, shunchalik keyingi yil

hosildorligi yaxshi va ko'p bo'lishi ayon. Aytib o'tish lozimki, hozirgi kunda O'zbekistonda urug'chilikka katta diqqat - e'tibor berilmoqda.

Urug'chilikka o'stirilgan karam va shunga o'xshash o'simliklarga ham bir qator zararli organizmlar zarar yetkazadi. Zararkunandalar ichida karam va boshqa butgulli o'simliklarga karam uzunburunlari - baridlar sezilarli zarar yetkazmoqda. Hasharotlarning bu turlari O'zbekiston sharoitida kam o'rganilgan. MDH davlatlarida asosan olimlardan A.F.Grigorovich (1947), N.A.Semenov (1950), N.A.Filippova, V.M.Yarkovoy (1964), Jalilova V.M. (1963), Osmolovskiy (1978) lar, O'zbekiston sharoitida bo'lsa X.A.Nasriddinov (1975), N.X.Salimovalar shug'ullanishgan. Bu olimlar qilgan ishlar 70-80 yillarga to'g'ri keladi, hamma bu ishlarning oz qismi bizning respublikamizga to'g'ri keladi. Ilgari olib borilgan kurash vositalari bugungi kun sharoitiga kelib eskirdi, o'simliklarni himoya qilish biroz yuksaldi, qarshi kurash vositalari yangilandi.

Shuning uchun biz o'z bakalavrlik, bitiruv malakaviy ishimizda karam va boshqa butgulli ekinlarga zarar yetkazuvchi karam uzunburunlari - baridlar bioekologiyasini, tarqalishini, zararlilik darajasini va ularga qarshi kurash choralarini tahlil qilishga bag'ishladik.

I- bob. KARAM ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda zararkunanda hasharotlar, kanalar va zararli kemiruvchilar faunasi, qishloq xo'jaligiga sezilarli zarar yetkazguniga qadar, deyarli o'rganilmagan edi. O'rta Osiyoda birinchilardan bo'lib, zaharli hasharotlarni V.M.Vasilyev (1911-1915), N.A. Dimo (1916), jumladan, sabzavot zararkunandalarini V.I. Plotnikov (1926) lar o'rganishgan.

O'zbekistonda bu vaqtgacha beda, bog' zararkunandalari yaxshiroq o'rganilgan edi, faqatgina oxirgi o'n yilliklarda butgulli sabzavotlar, asosan karam zararkunandalari haqida maqolalar paydo bo'la boshladi (G. Avanesova 1969; Shukuraliyev 1982, 1984).

Butgulli sabzavot ekinlari zararkunandalarining tarqalishi, zarari, bioekologiyasi va ularga qarshi kurash choralari to'g'risida V.V.Yaxontovning (1953) ma'lumotlari diqqatga sazovordir.

Butguldoshlar oilasiga (Brassica) ko'p sonligi o'simlik turlari - oqbo'sh karam, gul karam, kolrabi karami, pekin karami, sholg'om, turp, rediska, xren, qatron, salat va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari kiradi (Balashev, Zemin 1981).

Karam insonga oziqa sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, unda inson hayoti uchun zarur bo'lgan moddalar bor. Karam tarkibiga ko'pgina mineral elementlar (kaliy, kalsiy, fosfor, oltingugurt, magniy, temir, kobalt, ftor, yod, bor va boshqalar), vitaminlar (askorbin kislota, korotin yoki A provitami, foliy kislota vitaminlari V1, V2, V3, RR vitamini, D vitamini) kiradi.

Bulardan tashqari, oqbo'sh karam, bryussel karami va qizil karamlar tarkibida shakar va boshqa hayot uchun zarur bo'lgan elementlar mavjud.

Karam juda qadimgi o'simlik bo'lib, 5000 yil oldin ham bu o'simlik ma'lum bo'lgan va oziqa qadriga ega bo'lgan.

Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasining ma'lumot berishicha, o'rtacha yillik oziqani 15-20% ulushini karam egallashini aytgan. Bundan kelib chiqib, demak, bu o'simlikka talab juda katta.

Ma'lumki, karam hosildorligi zararkunandalar va kasallik qo'zg'atuvchilar jiddiy ta'sir qilib, o'simlikni o'sishi va rivojlanishini pasaytiradi, natijada hosildorlik kamayadi, hosil sifati yomonlashadi hamda urug'lar sifati buziladi.

O'zbekistonda butgulli sabzavot ekinlarini har xil zararli hasharotlari, jumladan, hammaxo'r va ixtisoslashgan zararkunandalari uchraydi.

Belgiyalik olim F. Vande Steene (1979) ular sharoitida karamni ixtisoslashgan zararkunandalariga karam kuyasi, karam bitlari, karam oq kapalagi va burgalari kirishini ta'kidlab o'tgan.

Hindistonda S.P.Pastil (1979) karamni 11 turdagi asosiy zararkunandalari bioekologiyasini o'rgangan.

Fransiyada gul karamni 15 turdagi ixtisoslashgan zararkunandasi aniqlangan va zararlash xususiyatlari izohlangan.

Nemis olimi Hommes Martin (1983) Germaniyada hamma turdagi karamlar dan 23 tur ixtisoslashgan zararkunandasini ro'yxatga olgan va bular ichida karam kuyasi, karam oq kapalagi hamda karam burgalari eng xavfli ekanligini aytib o'tgan.

Hammaxo'r zararkunandalardan kemiruvchi tunlamlar ham (kuzgi tunlam, undov tunlam, gamma tunlam va boshqalar) karamga zarar yetkazadi. Qandalalardan lavlagi qandalasi va boshqa qandalalar zarar yetkazishi mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan turlardan tashqari karamni asosan generativ organlarini zararlaydigan ixtisoslashgan zararkunandalari ham ma'lum bo'lib, bularga raps gulxo'ri, qo'zoqli qizil kapalak, urug' yashirin uzunburuni, bir qancha kovaklovchi qo'ng'izlar, baridlar va boshqalar kiradi. Sanab o'tilgan zararli hasharotlar ichida bevosita karam barglari bilan oziqlanib katta zarar yetkazadigan turlar karam kuyasi qurtlari, karam kapalagi qurtlari, butgullilar qandalalari, karam bitlari bo'lib, bu zararkunandalar karamni asosan vegetasiya davrining boshida zararlaydi.

Biroq karam zararkunandalar tomonidan butun o'sishi va rivojlanishi mobaynida zararlanadi. Erta bahorda karam pashshasi lichinkalari, karam oq kapalagi qurtlari, karam burgalari, uzunburunlilar lichinkalari zararlaydi. Keyinchalik karam qandalalari, karam pashshasini yozgi avlodlari, karam kuyasi, baridlar, raps arrakashi lichinkalari zararlanishni davom ettiradi. Yoz ohiri va kuzda karam kapalagi qurtlari va karam bitlari zararlashi mumkin (G.Ye. Osmolovskiy, 1972).

Karam zararkunandalari ichida karam biti (*Brevicoryne brassicae* L.). O'rta Osiyo sharoitida keng tarqalgan va karam hosildorligini 36 % gacha pasaytirishi mumkin (G.Ye. Osmolovskiy, 1972).

Karam biti sog'lom ko'chatlarda ham, nimjon karam ko'chatlarida ham oziqlanishi mumkin (N.Ya. Kuznesev, 1949).

Megalov V.A. (1967) ning hisobga olishicha, sog'lom karam ko'chatlarida bitlar soni, nimjon ko'chatlaridagiga nisbatan kam bo'lgan. Bitlar avlodlari sonini ko'payishi ma'lum bir maydonda (bargning bir qismida) yuz berishi mumkin.

A.P. Adashkeyevichning (1971) ma'lumotiga ko'ra karam biti faqatgina barglar uchun emas, iyun – iyul oylarida karam urug'lari uchun ham xavfli hisoblanadi. Chunki zararkunanda qishlovchi tuxumlari ko'pincha shu joyga qo'yiladi. Urug'lar shakllanayotgan vaqtda ko'proq xavfli bo'ladi. Erta pishar karam navlarida karam biti qachonki, ko'p yillardan beri karam ekilgan maydonlarda katta zarar yetkazishi mumkin. Asosan kechpishar navlarda ko'proq zarar yetkazadi.

Qozog'iston sharoitida karam bitlari tarqalgan karam dalalari hosildorligi 42-26 % gacha pasaygan. Bitlar bilan zararlangan karamni faqatgina hosildorligi kamayib ketmay, balki uni tovarlik sifati pasayadi va uning tarkibidagi uglevod, vitaminlar kamayadi (N.R. Pashenko, 1961).

I.Ye. Kitayevaning kuzatishicha (1977) karam biti Rossiyaning Sharqiy qismi sharoitlarida iyunda, asosan iyul avgust oylarida xavfli hisoblanadi.

Karamni ko'pgina turdagi butgulli qandalalar zararlaydi, ular ichida ko'proq zararlisi va keng tarqalganlariga raps qandalasi (*Eurydema oleraceae*) va bezakli qandala (*Eurydema ventralis* Kol.) kiradi. O'rta Osiyo sharoitida yosh karam ko'chatlariga O'rta Osiyo karam qandalasi (*Eurydema maracandica* osh.) katta zarar yetkazib, ular soni bitta ko'chatda 30 taga yetishi mumkin (G.Ye. Osmolovskiy, 1972). O'rta Osiyo bu qandalalar aprel oyining birinchi dekadasida uyg'onadi. Oldin qandalalar yovvoyi butgullilarda rivojlanadi va keyinchalik karam ko'chatlari unib chiqqandan so'ng shu yerga ommaviy o'tib keladi. Zararkunanda barg va gulli novdalardan o'simlik shiralarini so'rdi, natijada o'simlik sarg'ayadi, kuchsizlanib so'liydi va ayrim hollarda batamom nobud bo'lishi mumkin. Qandalalarga asosan yosh karam ko'chatlari ta'sirchan bo'ladi.

O'rta Osiyo qandalasi bizning sharoitimizda yiliga 3 marta avlod berib, har yili karam ko'chatxonalariga sezilarli zarar yetkazadi (Meyrmakova Ye., 1962).

A.A. Migulinning (1967) ko'rsatib o'tishicha, qandalalar bilan zararlanish intensivligi ob-havo sharoitiga bog'liq, bahorda va yoz boshlarida hali yetarli darajada rivojlanmagan paytda ko'proq zararlanadi. Qurg'oqchilik sharoitlarda zararlanish tezda o'sadi.

Karam zararkunandalari ichida tangaqanotlilar turkumi (*Lipidoptera*) vakillari – kuzgi tunlam, karam tunlami, gamma tunlami, poliz tunlami, sholg'om va karam oq kapalaklari va boshqalar asosiy o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida karam tunlami (*Mamestra brassicae* L.) karam va boshqa butgulli ekinlarning asosiy zararkunandasi hisoblanadi. U no'xat, lavlagi, piyoz va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini ham zararlashi mumkin.

G.Ye. Osmolovskiy (1972) ning yozishicha, karam tunlamining birinchi avlodi ko'p sonli va zararliroq bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi avlod soni ko'pgina bu zararkunandalarning entomofaglari tomonidan pasaytiriladi.

O'rta Osiyoda karam tunlamining yozgi avlodini 35-85 % g'umbagi diapauzaga ketadi. Shunga bog'liq holda birinchi avlod ko'p sonli bo'ladi,

ammo ayrim yillari ikkinchi avlod soni yuqori bo'lganligi ham kuzatilgan (Kalberganov, 1951).

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekistonning tog' oldi xududlarida karam oq kapalagi (*Pieris brassicae*) ham keng tarqalgan. Bundan tashqari tog' oldi xududlarda sholg'om oq kapalagi (*Pieris rapae*) ham karamga jiddiy zarar yetkazadi va ommaviy ko'payib ketganda sezilarli darajada hosildorlik kamayadi (Pustovoy, 1954).

Karamning xavfli zararkunandalaridan biri karam kuyasi hisoblanadi. U O'zbekiston sharoitida 10 ta avlod beradi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning (T.Ye. Hardy 1938, D.O. Harcourt 1957, L.A. Stepanova 1962, X. Kopvillem 1965, va boshqalar) fikricha, bu zararkunandani ommaviy tarqalishi migrasiya qobiliyati borligi bilan izohlanadi.

Oxirgi yillarda butgulli ekinlarda rivojlanadigan hasharotlar faunasini o'rganish butun Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini egallab bormoqda. BAM da T.D. Runevoy (1981) 30 turdagi karam zararkunandalarini aniqlagan. Krasnoyarskda G.M. Povorotova (1977) karamning ixtisoslashgan zararkunandalarini zararini va shu zararkunandalar tur tarkibini o'rgangan.

Markaziy Yakutiyada oq bosh karam zararkunandalari tur tarkibi va zarari o'rganilgan. (Yu.N. Ammosov i dr. 1980).

Hozirgi kunda karam va butgulli sabzavot ekinlari zararkunandalarini o'rganish, Ukrainada Sybulko V.I. (1982), Moldaviyada N.A. Fillippov, Rossiyada Baklushina V.V. va boshqalar tomonidan davom ettirilmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida sabzavot ekinlari zararkunandalari entomofaunasi to'g'risida to'liq va umumlashtirilgan ma'lumotlar L.M. Kopaneva (1982) ning ilmiy asarlari va maqolalaridan topish mumkin.

Karam va boshqa butgulli sabzavot zararkunandalari bilan Belorussiyada oxirgi yillarda V.I. Sidlyarovich, V.M. Lapikolyar (1991-2001) shug'ullanganlar. Ularning kuzatishicha, karam kuyasi (*Plutella maculinensis*) sonini tabiiy ravishda diadegma paraziti (*Diadegma fenestralis* Holmg)

chegaralab turadi. Bu entomofag urg'ochisi karam kuyasini hamma yoshdagi qurtchalariga tuxum qo'yib, ko'pincha II va III yoshdagi qurtlari zararlaydi. Diadegma bir yilda uchta, issiq iqlim sharoitlarda to'rttagacha avlod beradi.

1992 liyulda karam kuyasini ommaviy ko'paygani kuzatilgan (Sidlerevich, 1992) va bunda diadegma bilan zararlanish 40-90% ga yetgan. Avtorlar sholg'om va karam oq kapalagi entomofaglarini ham o'rgangan. U zararkunandalarda apanteles (*Apanteles glomeratis* L.) parazitlik qiladi. Ularni kuzatish olib borgan vaqtlarida karamni karam oq kapalagi bilan zararlanishi 3-20% bo'lgan. Yuqoridagi parazitlardan tashqari *Pteromolyus* (*Pteromalus puparum*), frikse (*Phryxe vulgaris*) lar ham karam va sholg'om oq kapalagi qurtlarida rivojlanadi, lekin juda past ko'rsatkichni tashkil qiladi.

Bir guruh rus olimlarini (M.Ye. Vladimirskaia, B.P. Asyakin, O.V. Ivanova 1997) aniqlashlariga asosan karam, bryukva, sholg'om, rediska va boshqa butgulli ekinlarga 300 dan ortiq fitofaglar: karam pashshalari lichinkalari, uzunburun – baridlar, poya yashirin uzunburunlari, karam kuyalari, bargxo'r qo'ng'izlar, oq kapalaklar, karam tunlami, raps arrakashi, butgulli qandalalar, raps gulxo'ri va boshqalar zarar yetkazadi. Avtorlarni bergan ma'lumotlariga ko'ra, bahorda butgullilar burgalari, karam pashshalari lichinkalari, yashirin poya uzunburuni va oq kapalaklar qurtlari xavfli hisoblanadi. Ular yuqoridagi zararkunandalarga qarshi kurash choralarini ham ishlab chiqib, ularga qarshi agrotexnik tadbirlardan erta bahorda begona o'tlarni yo'q qilishni, ko'chatlarni erta muddatlarda ekishni, hosilni yig'ib olgandan so'ng chopishni, yashirin poya uzunburunlilariga qarshi butgulli begona o'tlarni yo'q qilishni kimyoviy kurash choralaridan butgulli burgalarga qarshi 25% li provikurt k.e. 10g/10l, faksin 5% k.e. 100-150 gr/10 l, karam pashshalariga qarshi karbofos 10% k.e. (60 gr/ 10l), yashirin poya uzunburuni ommaviy paydo bo'lganda ham karbofos 10% li k.e. (60gr) qo'llaniladi (V.Ye. Vladimirskaia, B.P. Asyakin, O.V. Ivanova).

2001-2003 yillarda L.K. Gurkina karam va boshqa butgulli ekinlarga zarar yetkazadigan butgullilar burgalari, raps gulxo'ri, karam poya yashirin

uzunburuni, karam kuyasi, karam pashshasi, tunlami, oq kapalagi karam biti, raps arrakashlarini bioekologiyasini va ularga qarshi samarali kurash choralarini o'rgangan.

Respublikamizda karam zararkunandalari va ularning entomofaglari bilan Shukuraliyev B.T. (1988) shug'ullangan. U karam va sholg'om oq kapalagini 13 turdagi parazitlarini hisobga olgan. Bu parazitlar pardaqanotlilar va ikki qanotlilar oilalariga mansub bo'lgan. Parazitlar ichida *Apanteles glomeratus*, *Pteromalus puparum*, *Anilasta ebenninus* lar ustunlik qilgan. Butun vegetasiya davrida o'rtacha 20-46% oq kapalak qurtlari parazitlar tomonidan

Chex olimlaridan Bartos J, Holik K (1990) karam urug'lariga preparat bilan ishlov berilganda uni hosildorlikka va zararkunandalarga ta'sirini o'rganishgan. Ular Gloriya F1 nav karam urug'ini karbofos (30 ml/kg) va Neksion L-kombi preparatlari bilan ishlov berishadi. Urug'lardan chiqqan ko'chatlar o'suv mobaynida karam burgalari bilan kam zararlangan.

Tadqiqotlar urug'larga ishlov berishni hosildorlik va mahsulot sifatida ijobiy ta'sir qilishini hisobga olgan holda ishlab chiqarishga tavsiya etadi.

Karam navlari chidamliligi karam pashshasi va karam oq kapalagi rivojlanishiga dissipation ravishda ta'sir qiladi (Asyakin B.P., Ivanova O.V., 1988). Chidamli navlardan oziqlangan zararkunanda rivojlanish fazasini tezroq yakunlaydi va ayrim hollarda nobud qiladi.

Kharbuli B., A. Varman, (1989 Hindiston) lar laboratoriya sharoitida karam oq kapalagini (*P. Brassicae*) har xil turdagi karamlarda rivojlanish davomiyligini o'rganishgan. Ular har xil oziqa o'simliklarda turlicha rivojlangan va umumiy davomiylilik 37,0-40,5 kunni tashkil qilgan. Oq bosh karamda karam oq kapalagi ko'proq vaqt rivojlangan. O'simlik turlaridan tashqari karam oq kapalagi rivojlanishiga ko'pgina biotik va fizik (harorat, namlik, kun uzunligi) omillar ham ta'sir qilishi ma'lum bo'lgan.

Hind tadqiqotchilar Tiwari S.N., Kashyap N.P. (1988) lar *Pieris brassicae* ni oziqlanishi va tuxum qo'yishiga karam turlarini ta'sirini

o'rganishdi. Unda *Brassica campestris*. Var *sarson*, *B.Oleraceae* var. *botritis*, *Juncea*, *B. Oleraceae* var. *capitata* turlari olindi. Hamma oziqa o'simliklarida ham qurtlar 5 yoshni o'tagan. Kapalaklarning maksimal tuxum qo'yishi *B.Oleraceae* var. *botrytis* da kuzatilgan.

Karam biti (*brevicoryne brassicae*) ga qarshi kurashda metamidafos, xinalfos va malation preparatlari 0,03, 0,05 % konsentrasiyalarda 16 kun oralatib 2 marta, 25 kun oralatib 3 marta gektariga 1000 l ishchi eritma sarflash ishlov berilgan (Sozanna Jacob, Verma Shashi 1987). Ishlatilgan preparatlar ichida malation (0,03 %) boshqa preparatlarga nisbatan samaraliroq bo'lib, 85-905 % bitlar sonini nobud qilgan.

Stepanicheva Ye.A. (1987) Dimilin preparatini bahorgi karam pashshalariga qarshi qo'llagan va samaradorligi aniqlagan. Avtor dimilinning 0,02 % li konsentrasiyasini tayyorlab, karam ko'chatlari ildiziga qo'yishni tavsiya etadi va bunda 90 % gacha karam pashshalari lichinkalari nobud bo'lib, mahsulot sifatida salbiy ta'sir qilmasligini aytib o'tadi.

Respublikamiz sharoitida karamning xavfli zararkunandalariga keng tarqalgan va karam ko'chati hamda ularning urug'lari uchun xavfli bo'lgan baridlarni (*Baridae*) ham kiritish mumkin.

Bizning hududimizda bu zararkunandalar morfologiyasi, bioekologiyasi va ularga qarshi tadbirlari o'rganilmay qolmoqda. Adabiyotlarda keltirilishicha, *Baridae* (*Coleoptera*, *Curculionidae*) avlodiga kiruvchi uzunburunlar Yevropada XVIII asrdayoq qayd qilingan. Ularning sistematikasi, tarqalishi, faunistikasi haqida kataloglarda ro'yxatga olingan. Qisqacha ta'riflar berilgan.

Xorij avtorlaridan Scopoli (1763) karamga yovvoyi butguldoshlarga zarar yetkazadigan bryukva baridi (*Baris coerullescens* Scopoli) haqida aytib o'tgan. 1824 yilda Germar jeruxa baridini (*Baris lepidii* Germ.) karamga zarar yetkazishini aniqlagan va bu turga qisqacha ta'rif bergan.

I.Du Val (1852) naqshdor baridni (*Baris picturata*) birinchi bo'lib zararkunandalar ro'yxatiga kiritadi.

D.Shlexendal (1895) jeruxa baridini (*Baris lepidii*) Germaniyada, Janubiy va O'rta Yevropada, Marokash davlatlarida tarqalib karam va salatga zarar yetkazishini aytib o'tgan.

Polyak olimi Cmoluch (1958) o'z tadqiqotlari natijasida bryukva baridi qo'ng'izi va lichinkasi morfologiyasini ta'riflab, ularning biologiyasi to'g'risida bir qancha ma'lumot to'playdi. Polshada Cmoluch dan tashqari N. Kozlovska (1960) baridlarni karam urug'lari bilan oziqlanishini va mavsumiy rivojlanishini o'rgangan.

Xorij avtorlarining xulosasiga ko'ra, baridlar faqatgina karamni ixtisoslashgan zararkunandasi bo'lib qolmay, ularni hammaxo'r zararkunandalar ro'yxatiga ham kiritish mumkin (Yamaguti Fuko, 1978; Siraxama K'niti, 1979).

Mamlakatimizga oid adabiyotlardan butgulli sabzavot ekinlari zararkunandasi bo'lgan – baridlar yuzasida birinchi bo'lib, F.P. Keppen tadqiqotlar olib borgani ma'lum bo'ladi. U jeruxa va bryukva baridi lichinkalari karam, raps, jeruxa o'simliklari poyasi ichida rivojlanishini aytib o'tgan.

V.E. Iversen (1889) bryukva va jeruxa baridi morfologiyasi o'rganib, ular sonini pasaytirish maqsadida, baridlar bilan zararlangan urug'larni yoqishni tavsiya etadi. Keyinroq N.M.Arnoldi (1901) ni "Katalog naseкомых" kitobida jeruxa baridini Mogelev va Gomel Guberniyalarida tarqalganligini va ularni karamga, baqajo'xoriga, sholg'omga va turpga zarar yetkazishigi aytib o'tgan. Bu hudud sharoitlarida zararkunanda yosh oqbosh karam ko'chatlarini va ko'pgina butgulli sabzavot ekinlari urug'larini kuchli zararlagan. Bu tur Rossiyaning Yevropa qismida, Kavkazda, Janubiy va Markaziy Yevropada tarqalgan.

N.M. Kulagina (1906) o'z ishlarida Smolenskiy viloyati sharoitida bryukva baridini oqbosh karam va gulkaramning ixtisoslashgan zararkunandasi ekanligini aytib o'tgan. Tashenberg (1912) bryukva va jeruxa baridi lichinkalari, gulkaram, sholg'om, jeruxa, jeltushnik o'simliklari ildizlari va

poyalariga zarar yetkazishini aniqlagan. Bryukva va jeruxa baridlari MDH xududlarida keng tarqalgan tur “Katalog nasekomых s городных культур” da berilishicha bryukva va jeruxa baridi butun g’arbiy Yevropa hamda Rossiyaning o’rta va janubiy qismlarida tarqalgan. (Bogdanov-Katkov, 1928, 1933; V.A.Kiverskiy 1915).

N.A. Xolodkovskiy (1929) Baris Germ avlodini ta’riflar ekan, u bryukva baridini «Karam yashil filchasi» deb atagan va biologik asoslari hamda rivojlanishini o’rgangan. A.Raxmaminov (1934) kuzatishiga qaraganda bryukva va jeruxa barid lichinkalari ommaviy tarqalganda ozuqa ekinlari poyasi ichidan oziqlanib, yuqori ko’tarilib borgan.

Ozarbayjonda beda dalasida bryukva baridi kuzatilgan (V.N. Rekach, 1935) V.N. Rekach beda dalalarida yovvoyi butguldosh begona o’tlarni ko’rgandan keyin, bu baridlar o’sha yovvoyi butguldoshlarda rivojlanishini xulosa qilgan.

M.Ye. Ter – Minosyan (1947) uzunburunlar aniqlagich jadvaliga Araksa vodiysida (Armaniston) tarqalgan jeruxa va bryukva baridlarini ham kiritadi hamda bu ikkala turni Ozarbayjonda tarqalishini ham belgilab qo’yadi.

Armaniston va Ozarbayjonda baridlar bo’yicha S.M. Yablokov – Xizoryan (1961) tadqiqotlar olib borgan, hamda naqshdor baridni qadimgi O’rta yer dengizi turlariga kiritgan. Issiq va quruq iqlim sharoitlari bu turni keng tarqalishiga sabab bo’ladi.

Adabiy manbalardan, A.F. Grigorovich va I.A. Semenovaning Ukraina hududida olib borgan ishlari bizni jalb etdi.

A.F. Grigorovich (1947) ning ko’rsatib o’tishicha, Ukrainaning janubiy rayonlarida bryukva baridi katta zarar yetkazgan. Uning fikricha, ertagi karam poyalarida 10-15 ta lichinka bo’lsa, u o’simlik nobud bo’ladi. U lichinkalar poyada bir oy va undan ortiq rivojlanishini aytib o’tgan.

A.F. Grigorovich qo’ng’iz va lichinkalarni zamburug’ kasalliklariga chalinishini ham aytib o’tgan. Xorij va vatanimizga oid adabiyotlarda ham

baridlar ekologiyasi, biologiyasi, tarqalishi va ularga qarshi kurash choralari xususida yetarli maqlumot yo'qligini ular ham tasdiqlashadi.

Keyinroq bu zararkunandalar ustida I.A. Semenova (1950-1957) Kiyev va Xarkovda tadqiqotlar olib borgan. Uning bergan ma'lumotiga ko'ra, bryukva baridi baridlar orasida eng zararli tur hisoblanadi. Yig'ilgan baridlar ichida bu tur 95,5 % ni, jeruxa baridi esa 4,5% ni tashkil etgan. Bundan tashqari bryukva baridi rivojlanishining biologik asoslari, ularni oziqa o'simliklarini o'rgangan. Kurash chorasi sifatida I.A. Semenova karam ko'chat ekilgandan so'ng geksoxloran preparati suspenziyasi bilan ishlov berishni tavsiya qiladi.

Baridlar bioekologiyasini o'rganish bilan V.V. Dobrovolskiy shug'ullangan (1951-1959). Uning keltirishicha, bryukva baridi Krasnodar sharoitida may oxirida qishlovdan chiqqan. Tuxumining embrional rivojlanishi 4-8 kun, lichinkalik davri 40-50 kun davom etgan. Yangi avlod qo'ng'izlari avgust o'rtalarida paydo bo'lgan.

N.V. Papovning (1955) fikricha, bryukva baridi qizilbosh karamni kamroq zararlaydi, chunki bu navdagi karam xujayra shirasi tarkibida yuqori kislotali muhit hosil qiluvchi antosion moddasi borligi bilan izohlanadi.

T.A. Tvertina (1953) va K.K. Fasulata (1955) lar baridlar butgulli sabzavot ekinlarini ixtisoslashgan zararkunandalariga kiritadi va ayrim yillar juda katta zarar yetkazganligi (75%) to'g'risida ma'lumot beradi.

Uzunburunlar tashxisi bilan V.A. Zaslavskiy (1956) shug'ullanib, u Baris Germ. Avlodi aniqlagich jadvalini tuzadi.

MDH ning Yevropa qismida B.A. Gerasimova (1961) ning ma'lumotiga ko'ra, butgulli sabzavot ekinlariga va ularni urug'larini uzunburun-baridlar zararlagan. Zararlagan turlar ichida eng ko'p tarqalgan karam yoki qora barid (Baris carbonaria Grem.), va bryukva baridi (Baris coerullescens Spp.) bo'lib, bu turlardan tashqari raps baridi (Baris chborir L.) hamda jeluxa barid (Baris lepidii) lari ham uchragan. Shunday qilib, qora (Baris carbonaria Grem.)

karamga Shimoliy Kavkazda, Gorkov viloyatida, Moskva va Tula viloyatlarida zarar yetkazadi.

Birinchi bo'lib, V.M. Djalilova (1961-1964) O'zbekistonda bryukva baridini (*Baris coerulescens* Spp.) Toshkent viloyatidagi karamda hisobga olingan. U baridlarni ommaviy ko'payib 100 % karam urug'larini nobud qilganligi aytib o'tgan. Avtor kechki karam ko'chatlarini naqshdor barid (*Baris picturata*) zararlaganini ko'rsatib o'tib, zararkunanda soni bir o'simlikda 12-15 donaga yetganligini ko'rsatib o'tgan. Bundan tashqari V.M. Jalilov ularga qarshi kurash sifatida, dala chetidagi supurgi o'tlarni o'rib tashlashni, dala ichidagi begona o'tlarni yig'ib olishni, zararlangan va kasal o'simliklarni chiqarib kuydirishni hamda ko'chat yetishtiriladigan parniklar tuprog'ini dezinfeksiya qilishni tavsiya etadi.

Moldaviyada ham N.A. Fillippov va boshqa bir guruh olimlar (1963, 1964, 1968, 1970) tomonidan baridlar xususida anchagina ishlar qilindi. Ularning aniqlashicha, Moldaviya sharoitida asosan yashil barid (*Baris chlorirans* Grem.) karam va butgulli sabzavot ekinlarida keng tarqalgan. Ular ommaviy ko'payganda ertagi karam ko'chatlarini to'liq nobud bo'lishiga sabab bo'lgan, bunda bir o'simlikka 15-30 tadan zararkunanda to'g'ri keladi.

I.P. Maspennikov (1964), V.F. Pereso'pkin (1964) lar yashil barid (*Baris chlorirans* Grem.) biologiyasi va ularga qarshi kurash choralarini o'rgangan. Ular karam urug'lari gulpoyalanish davrida geksaxloran dustidan 35kg/ga, tiofos dustidan 30kg/ga, changlanishni hamda sevin suspenziyasidan 1,1 kg/ga purkashni tavsiya qiladi. L.M. Ovginnikov (1972) baridlarga qarshi bosh karamni 12 % li dust bilan ishlov berish samarali ta'sir qilishini aytib o'tgan.

X.A. Nasriddinovni ma'lum qilishicha, Tojikistonda karam va butgulli sabzavot ekinlarini zararlaydigan 3 turdagi baridlar – tangachali, bryukva hamda naqshdor baridlar tarqalgan. Xarkov oblastida ertagi va kechki karamni zararlaydigan 5 turdagi, Qora dengiz qirg'oqlarida esa qora barid tarqalib, zarar yetkazganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. (V.I. Sybulko, 1967, 1974; Migulin i dr. 1986.).

G.Ye. Osolovskiyning aniqlashicha, karam va boshqa butgulli sabzavot ekinlariga yuqorida aytib o'tilgan zararkunandalardan tashqari, qattiqqanotlilar turkumi (Coleoptera), uzunburunlilar oilasi (Curculionidae) vakillaridan – karam poya ichi uzunburuni (yashirin) ning 2 turi zarar yetkazadi. Bu zararkunandalar Rossiyaning Yevropa qismida kengroq tarqalib, zarari sezilarli bo'lgan (Migulin A.A., Osmolovskiy G.Ye., 1974).

Mualliflar bu zararkunanda morfologiyasi hamda bioekologiyasini quyidagicha ta'riflaydi:

Karam poya ichi uzunburunlari (*Ceutorlyncus quadridens* Pans., *Ceutorlyncus assimilis* Payk.) ning uzunligi 3 mm gacha bo'lib, qoramtir rangda, tuxum 0,8 mm, ovalsimon bo'ladi. Bu hasharot lichinkasi sarg'ish oq rangda, uzunligi 5 mm gacha.

Karam poya ichi uzunburunlari, xuddi bryukva baridi singari, karam poyasi ichi va karam urug'lari bilan oziqlanadi. Ular poya ichida yashirin holda yashab, zararlashi poyani yumshoq qismidan boshlaydi. Zararkunanda qo'ng'izlik davrida o'simlik qoldiqlarida va tuproqda qishlab chiqadi. Tuproq harorati 8-9⁰ C bo'lganda, ko'pincha may oylarida qishlovdan chiqadi. Qishlovdan chiqqan qurtlar qo'shimcha oziqlanib tuxum qo'yadi. Rossiyada may oyining birinchi – ikkinchi dekadalarida, Leningradda esa may oxirida tuxum qo'yadi (Osmolovskiy, 1972; Vladimirskeya va boshqalar, 1997).

II-bob. Tadqiqot o'tkazishda qo'llaniladigan uslublar

Tadqiqot va kuzatishlar dala va laboratoriya sharoitida olib borilgan.

Agrobiosenozda kuzatuvlar karamda zararkunanda paydo bo'lgandan to hosil yig'ilguncha dekadalar bo'yicha o'tkazilgan. Dala maydonchasidan namunalar diagonal bo'yicha 10 joydan 5 tadan o'simlik olingan. Tuproqdagi va o'simlikdagi qo'ng'izlar zichligi maydonchani har biridan 0,25 m² olib aniqlandi. Zararlash foizini aniqlash uchun 20 joydan 5 tadan o'simlik ko'rib natija olingan.

Baridlar turini va ularni rivojlanish davomiyligini aniqlash hamda o'rganish uchun zararkunanda tuxumlari va lichinkalari imago fazasigacha laboratoriya sharoitida boqilgan.

Bryukva baridi serpushtligi laboratoriya sharoitida aniqlandi. Jami qo'yilgan tuxum sonini urg'ochilar soniga bo'lib, bitta urg'ochining o'rtacha serpushtligi topilgan.

Baridlarga qarshi kimyoviy preparatlar 3 variantda qo'llanilgan.

Biologik samaradorlik bu ko'plab ko'rsatkichlarga bog'liq bo'lib, ular preparatdagi ta'sir etuvchi moddani miqdori, ishchi suyuqligining konsentratsiyasi, maydon hisobiga taqsimlanayotgan preparat miqdori, ishchi eritmani o'simlikni qoplashi va yana qarshi kurashilayotgan obyektning biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. Umuman, biologik samaradorlik 3 sistemaning o'simlik – zararli organizm – himoya usulining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi.

Preparatning biologik samaradorligi.

$$C = \frac{Ab - Ba}{Ab} \times 100$$

Formulasi orqali hisoblanadi.

Bu yerda:

S – biologik samaradorlik darajasi;

A – zararkunanda hasharotning kurash o'tkazishdan oldingi soni;

b – zararkunanda hasharotning nazoratda kurash o'tkazilgandan keyingi miqdori;

B – zararkunanda hasharotning nazoratda kurashdan oldingi soni;

A - zararkunanda hasharotning kurash o'tkazishdan keyingi soni

Biologik samaradorlik foizlarda (%) ifodalandi.

2.1. Tadqiqot o'tkazish maqsadi va vazifalarini tahlili.

Karam o'simligi vitaminlarga boy sabzavot ekinini bo'lib, inson organizmga kerakli mineral tuzlar, vitaminlar va fermentlar bor. Ana shu o'simliklarning ashaddiy dushmanlari bo'lgan karam va uning urug'i hosildorligi hamda sifatini pasaytiradigan hasharotlar- karam uzunburunlarini o'rganishdir. Bundan tashqari biz o'z oldimizga

- ❖ O'zbekistonda karam va uning urug'lariga zarar yetkazadigan baridlar tur tarkibini aniqlashni, ularni sistematikasini va uning ekologik faunistik xarakteristikasini o'rganishni tahlili.
- ❖ Karam uzunburunlari – baridlarning xo'jayin o'simliklarini hamda eng xavfli bo'lgan barid turlarini bioekologiyasini o'rganishni tahlili.
- ❖ Baridlarga qarshi har xil agrotexnik, kimyoviy biologik choralarini o'rganib, tahlil qilish asosida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga tavsiya qilishni maqsad qilib qo'yilgan.

III. TADQIQOT NATIJALARI

3.1. Butguldoshli sabzavotlarga zarar yetkazadigan – baridlar tur tarkibini morfologiyasi, bioekologiyasi va zarari.

O'zbekistonda karam, sholg'om, rediska va butgulli sabzavot ekinlarini bryukva barididan (*Baris coerullescens*) tashqari naqshdor barid (*Baris picturata*), jeruxa baridi (*Baris scopoli*), tangachali barid, semistriata baridi (*Baris semistriata*) ham zararlaydi. Bryukva baridi (*Baris coerullescens*) respublikamizda keng tarqalgan va zararliroq tur hisoblanadi. Zarari bo'yicha bryukva baridi (*Baris coerullescens*) so'ng, karam ko'chatlariga sezilarli zarar yetkazadigan naqshdor barid (*Baris picturata*) turadi.

Urug'lik karamni kuzatishlari natijasida, yuqorida keltirib o'tilgan baridlarni tur tarkiblarini yig'ilgan va ularni uchrash darajasini tahlil qilgan.

1-Jadval

Urug'lik karamdagi baridlar tur tarkiblarini uchrash darajasi (Kimsanboyev X.X., Faxriddinov Sh.J tajriba ma'lumotlari 2011 y)

Barid turlari	Uchrash darajasi %	zarari	Uchrash darajasi %	zarari
Bryukva baridi	58,0	+++	46,0	+++
Tangachali barid	3,5	+	2,5	+
Semisrtiata baridi	1,5	+	3,4	+
Spitzii baridi	0	0	18,6	++
Likzus arnoldi	12	++	5	+
Jeruxa baridi	5,0	++	9,5	++

+++ - Yuqori; ++ - o'rtacha; + - past;

Naqshdor barid (*Baris picturata*)

Naqshdor barid (*Baris picturata*) morfologiyasi, bioekologiyasi va unga qarshi kurash choralari hozirgi vaqtgacha yaxshi o'rganilmagan. Bizning ma'lumotimizga ko'ra bu tur barid karam ko'chatlari yetishtiriladigan ko'chatxonalarda sezilarli zararetkazadi. Naqshdor barid (*Baris picturata*)

lichinkalari bilan zararlangan ko'chat ingichkalashadi, to'qimalar yumshab barg bandlari egilib qoladi. Agar 3-4 ta barg fazasidan ko'chatga 2-3 ta naqshdor (*Baris picturata*) lichinkalari tushsa uning o'sishi susayadi, 4-5 ta lichinka bo'lganda esa rivojlanishdan to'xtaydi va ko'pincha nobud bo'ladi.

Naqshdor barid (*Baris picturata*) baridlar ichida keng tarqalgan turlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u G'arbiy Yevropada (Reyter, 1895), Krim, Kavkazda (Zaslavskiy, 1956), Armanistonda (Yablokov, Xizoryan, 1961), O'zbekistonda (Jalilova, 1963), Qozog'istonda (Baytenov, 1968) va Tojikistonda (Nasreddinov, 1975) tarqalgan.

Qo'ng'izi qora rangda, tana usti och oltin rang tangachalar bilan qoplangan. Qanoti ustida X-simon surati bor. Tanasi uzunligi bosh trubkasidan tashqari 3-3,5 mm. Orqasining old qismida oq tangachadan iborat 2 ta dog'i, orqa qismida esa xuddi shunga o'xshash 3 ta dog'lar bor. Qorin qismi och kulrang tanachalar bilan qoplangan. Oyoqlarida ham tangachalari bo'ladi.

Bosh trubkasi ingichka, kuchli egilgan. Boshi, bosh trubkasi, mo'ylovchalari, ko'zi va oyoqlari qora rangda.

Naqshdor barid (*Baris picturata*) tuxumi uzunligi 0,5 mm, diametri 0,3 mm, ovalsimon formada. Yangi qo'yilgan tuxumlar oqish sariq rangda, lichinkalar 0,5-0,6 mm uzunlikda, oqish rangda, boshi och qo'ng'ir rangda. Oxirgi yoshdagi lichinkalar 5 mm uzunlikda bo'lib, S-simon buralgan, oyoqsiz, boshi kuchli xitinlashgan bo'ladi. Lichinkaning butun tanasi mikrosetlar bilan qoplangan. Ko'krak tergitlarida 8 tadan pleyretlarida 2 tadan, qorin tergitlarida esa 4 tadan tukchalari bor. Anal teshigi qorin qismining 10-skleritida joylashgan. Havo naychalari 9 juft bo'lib, 2 jufti old ko'kragida, 8 jufti esa qornining 1-8 segmentlarida joylashgan. G'umbagi erkin g'umbak och sariq rangda, 3-3,5 mm uzunlikda. Qornining oxirgi bo'g'imida 2 ta kattagina tukchasi bor.

Naqshdor barid (*Baris picturata*) o'simlik qoldiqlarida va tuproqda qo'ng'izlik stadiyasida qishlaydi. Qishlovdan aprel oxiri may boshlarida, o'rtacha chutkalik havo harorati 18-26⁰ C bo'lganda chiqadi. Qishlovdan

chiqqan qo'ng'izlar birinchi kundayoq intensiv ravishda qo'shimcha oziqlanadi. Qo'shimcha oziqlanish 7-12 kun davom etib, qo'ng'izlar otalangandan 6-8 kun o'tgach tuxum qo'ya boshlaydi. Urg'ochilar 100 tagacha tuxum qo'yadi. Ular tuxumini karam ko'chatlari ildizi atrofiga (poyani tuproqqa yaqin qismiga) va ayrim hollarda barg bandiga qo'yadi.

Tuxumdan chiqqan lichinkalar poya ichini kemiradi. 30 – 40 kundan so'ng lichinkalar oziqlanishni tugallab, ayrim hollarda o'simlik poyalari ichida va ko'pincha g'umbakka aylanadi. G'umbagining rivojlanish davomiyligi 7 – 9 kun. Yangi avlod qo'ng'izlari iyul oxirida paydo bo'ladi. Naqshdor barid (*Baris picturata*) bir yilda faqat bitta avlod berdi.

Jadval - 2

**Naqshdor baridni rivojlanish fenologiyasi.
(Kimsanboyev X.X., Faxriddinov Sh.J tajriba ma'lumotlari 2011 y)**

Oy, dekadalar. Qishki fazasi va qishlov joyi	Mart			Aprel			May			Iyun			Iyul			Avgust			Sentyabr		
	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
Qo'ng'iz. Tuproqda, parnik va ko'chatxonalarda karam va boshqa butgulli sabzavot ekinlari ekilgan dalalarda, o'simlik qoldiqlarida qishlaydi.	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	+	+	+	+	+	+									
							.	.	.	.	.	.									
							-	-	-	-	-	-	0	0	0	0	0				
																+	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)
(+) – qishlovdagi qo'ng'iz, + - aktiv qishlovdan chiqqan qo'ng'iz, . – tuxum, 0 – g'umbak, - - lichinka.																					

Ko'rkam barid

Oligofag tur bo'lib, uning suvimli o'simligi karam ko'chatlari hisoblanadi. Ayrim yillari bu barid tufayli ertagi karam ko'chatlari 80%ga qadar zararlangan (Tveritina, 1953).

Ko'rkam barid lichinkalari poya ichini kemiradi. Ular sholg'om, rediska, turneps, gul karam, xantal (gorchisa) o'simliklarini ham zararlaydi. Hozirgi kunda u G'arbiy Yevropada, Kavkazda, Qozog'istonda, Armanistonda, Ozarbayjonda, Ukrainada, Belorusiyada, Moldaviya va O'zbekistonda tarqalgan. Bu barid qo'ng'izlari tuproq ko'sakchalari ostida va o'simlik qoldiqlarida qishlaydi. Qishlovdan chiqqan qo'ng'izlar 8-12 kun davomida qo'shimcha oziqlanadi va otalanganidan so'ng poya to'qimasiga hamda ildizi atroflariga tuxumini qo'yadi.

